

BOSHLANG ICH SINIF O'QUVHILARIDA EMOTSIONAL- INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Mustafoyeva O'g'iloy Zayniddin qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarand davlat universiteti Urgut filiali

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Xurramova Oygul Xudayberdiyevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional intellektini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va psixologik asoslari yoritilgan. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'z his-tuyg'ularini anglash, ularni boshqarish hamda atrofdagilarning emotsional holatlarini tushunish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, emotsional intellektning o'quv faoliyati samaradorligi va ijtimoiy moslashuvga ta'siri bo'yicha ilmiy xulosalar bayon etilgan.*

Tayanch so'zlar: *Boshlang'ich sinf, emotsional intellekt, emotsiya, his-tuyg'u, empatiya, didaktik o'yinlar, psixologik rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, o'z-o'zini boshqarish*

Аннотация: *В данной статье освещены специфические особенности и психологические основы развития эмоционального интеллекта учащихся начальных классов. Анализируются вопросы формирования навыков понимания собственных чувств, управления ими, а также понимания эмоционального состояния окружающих у детей младшего школьного возраста. Кроме того, изложены научные выводы о влиянии эмоционального интеллекта на эффективность учебной деятельности и социальную адаптацию.*

Ключевые слова: *начальный класс, эмоциональный интеллект, эмоция, чувство, эмпатия, дидактические игры, психологическое развитие, социальная адаптация, самоконтроль.*

Abstract: *This article highlights the specific characteristics and psychological foundations of developing emotional intelligence in primary school students. It analyzes the formation of skills related to understanding and managing one's own feelings, as well as recognizing the emotional states of others in children of primary school age. Furthermore, the article presents scientific conclusions regarding the impact of emotional intelligence on the effectiveness of educational activities and social adaptation.*

Keywords: *primary school, emotional intelligence, emotion, feeling, empathy, didactic games, psychological development, social adaptation, self-management.*

Bugungi kunda o'quvchilar shaxsining har tomonlama rivojlanishiga e'tibor qaratish zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Ayniqsa, insonning hissiy olami va ijtimoiy ko'nikmalarini ifodalovchi emotsional intellekt tushunchasi ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Global miqyosda olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlar va amaliyotlar shuni ko'rsatmoqdaki, emotsional intellekti rivojlangan bolalar nafaqat o'z his-tuyg'ularini boshqara oladi, balki tengdoshlar bilan sog'lom munosabatlar o'rnata oladi, stress holatlarini yengib o'tish, qobiliyatiga ega bo'ladi va bu holat ularning o'quv faolligi va akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Prezidentimizning ta'lim tizimini tubdan isloh qilish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini (soft skills: empatiya, jamoada ishlash, his-tuyg'ularni boshqarish) rivojlantirishni ko'zda tutuvchi Milliy o'quv dasturi joriy etilgan. Unda maktablarda faqat yodlashga asoslangan ta'limdan voz kechib, bolalarning hissiy va hayotiy ko'nikmalarini (emotsional intellektini) rivojlantirishga qaratilgan.[1].

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2020-y., 06/20/6108/1483-son. Lex.uz saytida matn.

Shuningdek, Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda hissiy (emotsional) barqarorlikni shakllantirish, ularni stress va turli yot g'oyalardan himoya qilish maqsadida o'quvchi-yoshlarning emotsional holati bilan ishlash, ularda ma'naviy va hissiy "immunitet" shakllantirish maqsadida ta'lim maskanlarida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish hamda ota-onalar bilan hamkorlikda bolaning hissiy muammolarini erta aniqlash vazifalari belgilangan.[2]. Ushbu strategik hujjatlar doirasida o'quvchilarning nafaqat akademik bilimi, balki shaxs sifatida shakllanishi uchun emotsional intellektual salohiyati xalqaro andozalar asosida baholanishi nazarda tutilgan. Ya'ni, PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimlari talablari asosida bolalarning funksional va ijtimoiy savodxonligi integratsiya qilingan.[3].

• Prezident farmonlarida belgilangan ushbu topshiriqlar amaliyotda maktab darsliklariga ko'chirildi. Masalan, boshlang'ich sinflar uchun joriy etilgan «Tarbiya» fani darsliklarida to'g'ridan-to'g'ri emotsiyalarni tushunish, g'azab va stressni nazorat qilish hamda o'zaro hurmat (empatiya) darslari kiritilgan bo'lib, bu darsliklar yuqoridagi PF-6108-sonli Farmon ijrosi hisoblanadi.[4]

Emotsional intellekt(EI) tushunchasi birinchi bor amerikalik psixolog Piter Salovey va tadqiqotchi Jon Meyer tomonidan 1990-yillarda ilgari surilgan. Ularning fikricha, emotsional intellekt —bu insonning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish, motivatsiya qilish, boshqalar hissiyotini tushunish va munosabatlarni boshqarish qobiliyatidir. Keyinchalik bu tushuncha Daniel Goleman tomonidan ommalashtirildi. U EI'ni inson muvaffaqiyatining muhim omili sifatida talqin qildi. Golemanning fikricha, emotsional intellekt yuqori bo'lgan.

2.O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019-y., 07/19/4306/3067-son. Lex.uz saytida matn.

3. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son. Lex.uz saytida matn.

4. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2020-y., 06/20/6108/1483-son. Lex.uz saytida matn

Sharqda esa, xususan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy kabi mutafakkirlar inson tarbiyasida his-tuyg'ularni nazorat qilish, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, o'zini anglash va boshqalar bilan sog'lom muomala qilishni muhim tarbiyaviy vazifa sifatida ta'kidlab o'tganlar. Masalan, Forobiy insonning baxtli hayot kechirishi uchun nafaqat aql, balki ma'naviy va hissiy jihatdan to'la shakllangan bo'lishi zarurligini uqtirgan. Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa bolaning psixologik va hissiy rivojlanishida eng muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bola atrof-muhitni yangi ko'z bilan anglay boshlaydi, o'zini jamiyat a'zosi sifatida his eta boshlaydi. Shunday paytda emotsional intellektni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogic yondashuvlar —bolaning o'z hissiyotlarini anglash dars davomida o'z fikrini erkin ifoda etish, tengdoshlari bilan sog'lom ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish orqali amalga oshiriladi

Zamonaviy pedagogikada emotsional intellektni rivojlantirish uchun interfaol metodlar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, jamoaviy ishlar kabi usullar samarali deb topilgan. Masalan, dars jarayonida o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini so'z bilan ifoda etish, boshqalar fikriga quloq solish, vaziyatlarga nisbatan empatiya bilan yondashishni mashq qilishadi. Bu orqali ularning EI komponentlari —o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni boshqarish kabi jihatlari rivojlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda esa emotsional intellekt bir nechta tarkibiy komponentlardan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Ularga o'z his-tuyg'ularini anglash, ularni boshqarish, motivatsiya, empatiya hamda ijtimoiy ko'nikmalar kiradi. Ushbu komponentlar shaxsning o'zini anglash jarayonida muhim rol o'ynaydi hamda uning ijtimoiy faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi. Ayniqsa empatiya, ya'ni boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyati insonlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ta'lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantirish o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini anglay olgan va ularni boshqarishni o'rgangan taqdiridagina o'quv faoliyatida yuqori natijalarga erishishi mumkin. Emotsional barqarorlik o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi hamda bilimlarni samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning emotsional rivojlanishi uchun muhim davr hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarda o'zini anglash jarayoni shakllanib boradi, ular turli hissiy holatlarni boshdan kechiradi hamda o'z his-tuyg'ularini ifoda etishni o'rganadi. Shu sababli o'qituvchilar ta'lim jarayonida o'quvchilarning emot-sional holatini inobatga olgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etishi zarur. Emotsional intellektni rivojlantirish o'quvchilarning ijtimoiy moslashuviga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Jamoada ishlash, tengdoshlari bilan samarali muloqot o'rnatish hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda o'zini to'g'ri tutish ko'nikmalari aynan emotsional intellekt

bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ta'lim tizimida o'quvchilarning emotsional rivojlanishini qo'llab-quv-vatlashga qaratilgan metod va yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Pedagogik amaliyotda emotsional intellektni rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalaniladi. Interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, rolli mashg'ulotlar hamda didaktik o'yinlar ushbu jarayonda samarali vositadir.

Didaktik o'yinlar – o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi hamda jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Bunday o'yinlar orqali o'quvchilar turli vaziyatlarni modellashtiradi, o'z fikrini erkin ifoda etadi hamda boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikdamuammolarni hal qilishga o'rganadi. Shu jarayonda ular o'z his-tuyg'ularini boshqarish, atrofdagilarning fikrini tinglash va hurmat qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Demak, didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional-intellektni shakllantirishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning o'quv faoliyatida faolligini kuchaytirish hamda ijobiy psixologik muhitni yaratishga xizmat qiladi. O'yin faoliyati jarayonida o'quvchilar o'zlarini erkin his qiladi, bu esa ularning emotsional holatini barqarorlashtirishga yordam beradi. Natijada o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatlar shakllanadi va samarali muloqot muhiti ham yuzaga keladi. Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi didaktik o'yinlarning o'quvchilarning hissiy rivojlanishi, muloqot ko'nikmalari hamda ijtimoiy faolligiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Ushbu tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan samarali foydalanish bo'yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi hamda o'quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni takomillashtirishga yordam beradi.



Pedagogik amaliyotda emotsional intellektni rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalaniladi. Interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, rolli mashg'ulotlar hamda didaktik o'yinlar ushbu jarayonda samarali vosita sifatida qo'llaniladi. Ayniqsa didaktik o'yinlar o'quvchilarning emotsional tajribasini boyitish, ularning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy faoliyatini faollashtirishda muhim rol o'ynaydi. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar turli vaziyatlarni modellashtiradi, o'z fikrini erkin ifoda etadi hamda boshqalarning hissiyotlarini tushunishga harakat qiladi. Bunday jarayon o'quvchilarning empatiya, hamkorlik va o'zaro hurmat kabi ijtimoiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Natijada o'quvchilarda emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari rivojlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional rivojlanishi ularning his-tuyg'ularni anglash, ifoda etish va boshqarish qobiliyatlari bilan tavsiflanadi. Ushbu yosh davrida bolalar o'z hissiy holatlarini asta-sekin anglay boshlaydi. Masalan, ular quvonch, hayrat, xafa bo'lish, qo'rquv yoki hayajon kabi hissiy kechinmalarni boshdan kechiradi va bu hisslarni turli shakllarda namoyon etadi. Biroq ushbu davrda bolalar hali o'z emotsiyalarini to'liq nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Shu sababli ayrim hollarda ular o'z hissiyotlarini keskin yoki ochiq tarzda ifoda etishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional xususiyatlaridan yana biri ularning hissiy ta'sirchanligidir. Bolalar tashqi muhitdagi voqea-hodisalarga tez munosabat bildiradi, kichik muvaffaqiyatdan quvonadi yoki kichik muvaffaqiyatsizlikdan ham xafa bo'lishi mumkin. Bu holat ularning psixologik rivojlanish jarayonining tabiiy qismi hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchilar va ota-onalar bolalarning emotsional holatini inobatga olgan holda ular bilan pedagogik va tarbiyaviy ishlarni olib borishi muhimdir. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional rivojlanishi ta'lim muhitiga ham bog'liqdir. Agar sinfda ijobiy psixologik muhit yaratilsa, o'quvchilar o'zlarini erkin va ishonchli his qiladi. Bunday muhit o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga, dars jarayonida faol ishtirok etishiga hamda tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishiga yordam beradi. Aksincha, salbiy muhit o'quvchilarda qo'rquv, ishonchsizlik yoki passivlik kabi holatlarning paydo bo'lishiga olib

kelishi mumkin. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarning emotsional xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishi, ular o'rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirishi hamda qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishi zarur. Natijada o'quvchilarning emotsional rivojlanishi barqarorla-shadi va bu ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Didaktik o'yinlar bir necha turga bo'linadi: roli o'yinlar, muammoli vaziyatlar, guruhli o'yinlar va his-tuyg'ularni aniqlashga qaratilgan mashg'ulotlar. Masalan, "Rolga kirish" o'yini bolalarni turli ijtimoiy vaziyatlarda turli rollarni bajarishga undaydi, bu esa empatiya va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. "His-tuyg'uni top" o'yini orqali o'quvchilar o'z hissiyotlarini aniqlashga va boshqalarning kayfiyatini tushunishga o'rganadi. Guruhli didaktik o'yinlar esa o'quvchilarni jamoada ishlashga, bir-biriga yordam berishga va qaror qabul qilishda birgalikda harakat qilishga o'rgatadi. Bu jarayon o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini oshiradi va darsdagi faollikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, o'yinlar darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi va o'quvchilarda o'zini ishonchli his qilish tuyg'usini shakllantiradi. Umumiy qilib aytganda, didaktik o'yinlar boshlang'ich ta'lim jarayonida nafaqat bilim olishni qiziqarli va interaktiv qiladi, balki o'quvchilarning emotsional intellekti, muloqot madaniyati va ijtimoiy ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Shu sababli o'qituvchilar darslarni rejalashtirishda didaktik o'yinlardan tizimli foydalanishlari muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirish – bu shunchaki muloqot madaniyatini o'rgatish emas, balki shaxsning ruhiy barqarorligi va intellektual salohiyatini yuzaga chiqaruvchi fundamental jarayondir. Ushbu jarayonning ahamiyatini quyidagi bir necha muhim jihatlar bilan dalillash mumkin:

Birinchidan, pedagogik samaradorlik nuqtayi nazaridan, emotsional intellekti yuqori bo'lgan bola o'quv materialini o'zlashtirishda kamroq to'siqlarga uchraydi. Negaki, u o'zidagi darsga nisbatan zerikish, charchoq yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish kabi salbiy hislarni nazorat qila oladi va ularni o'z vaqtida ijobiy motivatsiyaga aylantirish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining akademik ko'rsatkichlari barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ijtimoiy moslashuv masalasi bugungi globallashuv davrida har qachongidan ham muhimroq. Maktab ostonasiga qadam qo'ygan bola ilk bor jamoaviy muhitga duch keladi. Emotsional intellekt unga tengdoshlari bilan nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, jamoada yetakchilik qilish va eng muhimi, boshqalarning holatiga hamdardlik (empatiya) bildirish imkonini beradi. Bunday bolalar kelajakda jamiyatda o'z o'rnini oson topadigan, kirishimli va sog'lom muloqot o'rnata oladigan shaxslar bo'lib yetishadi.

Uchinchidan, ruhiy salomatlik va profilaktika. Bugungi kunda bolalar orasida kuzatilayotgan stress, xavotir va tushkunlik kabi holatlarning oldini olishda EQ (emotsional koeffitsiyent) eng samarali qalqon hisoblanadi. O'z tuyg'ularini nomlay oladigan va ularni to'g'ri ifodalashni biladigan bola ichki kechinmalarini "yutib" yubormaydi, bu esa turli psixosomatik kasalliklarning oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida asosiy e'tiborni faqat bilim berishga (IQ) qaratish yetarli emas. Zamonaviy maktabning eng muhim vazifasi – bilimli bo'lish bilan birga, o'z his-tuyg'ularini idora qila oladigan, ruhan tetik va ijtimoiy mas'uliyatli insonni tarbiyalashdir. Boshlang'ich sinf davrida poydevori qo'yilgan emotsional savodxonlik bolaning kelajakdagi professional muvaffaqiyati va shaxsiy baxtining asosiy kafolati bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»*gi PF-6108-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»*gi PQ-4306-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi *«O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»*gi PF-5712-sonli Farmoni.
4. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*, 9(3), 185–211. (klassik nazariy manba)
5. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books. (fundamental konseps-tual manba)
6. Normurodova, N., & Azizova, S. (2025). Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish yo'llari. *Journal of Universal Science Research*.
7. Shoyusupova, S., & Kuchkorova, Z. (2024). The experience of using didactic games in elementary school classes. *Akademic Journal of Educational Research*, 6(6).
8. Axmatova, Z. E. (2025). Emotsional intellekt rivojlanishiga ta'sir etuvchi tarbiyaviy psixologik omillar. *Psixologiya ilmiy jurnali*, 3.
9. Xudoyberdiyeva, Z. (2025). Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida emotsional intellekt namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari. *Jurnal pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 5(1).
10. Nurullayeva, R. A., & Suvonova, G. B. (2023). Didaktik o'yinlar texnologiyasi va uning boshlang'ich adabiy ta'limdagi o'rni. Bestpublication.
11. Suyumova, U. S. (2025). Darslarda emotsional innovatsiyalarni qo'llash. *Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali*, 5(1).
9. Pardayeva, O. O., & Yo'ldosheva, H. B. (2024). Emotsional intellekt. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 14(4)